

## JISMONIY VA YURIDIK SHAXSLARNING MUROJAATLARI

2018 yil yanvar holatiga

Davlat statistika qo'mitasiga 2018 yilning yanvar holatiga jismoniy va yuridik shaxslardan **166 ta** (o'tgan yilning shu davrida 228 ta) murojaatlar kelib tushgan.

Tahlillarga ko'ra, murojaatlarning **44,5 foizi (74 ta)** jismoniy shaxslar va **55,5 foizi (92 ta)** yuridik shaxslarning murojaatlariga to'g'ri kelgan.


Murojaatlarning asosiy qismi, ya'ni **119 tasi (jamiga nisbatan 71,6 foiz)** – Toshkent shahridan va **17 tasi (10,2 foiz)** – Toshkent viloyatidan kelib tushgan.

Davlat statistika qo'mitasi rahbariyati tomonidan O'zbekiston Respublikasi hududlaridagi shahar va tumanlarda sayyor shaxsiy qabullar o'tkazilgan.

Ushbu sayyor qabullarda **8 ta** jismoniy shaxslar va yuridik shaxslar vakillarining murojaatlari ko'rib chiqilgan.


Murojaatlar (kelib tushishi bo'yicha)	Soni	Ulushi, %
O'zbekiston Respublikasi Prezidentining virtual qabulxonasi orqali	2	1,2
Davlat statistika qo'mitasi Raisi virtual qabulxonasi orqali	17	10,2
Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali orqali	17	10,2
Qo'mitaning elektron veb-sahifasi orqali	25	15,0
To'g'ridan-to'g'ri kelib tushgan yozma murojaatlar	97	58,4
Qo'mita rahbariyatining shaxsiy va sayyor qabullaridagi og'zaki murojaatlar	8	5

Soni – birlikda



- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining virtual qabulxonasi orqali
- Davlat statistika qo'mitasi Raisi virtual qabulxonasi orqali
- Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali orqali
- Qo'mitaning elektron veb-sahifasi orqali
- To'g'ridan-to'g'ri kelib tushgan yozma murojaatlar
- Qo'mita rahbariyatining shaxsiy va sayyor qabullaridagi og'zaki murojaatlar

Ulushi—foizda



**Eslatib o'tamiz:**

O'z faoliyatingizda statistika idoralari bilan bog'liq masala va muammolarga duch keldingizmi, statistik yoki tahliliy ma'lumot olishni xohlaysizmi, quyidagi,

“Ishonch telefon”lari:  
(71) 230-81-80/ 230-81-82

Davlat statistika qo'mitasi rahbariyatiga bevosita murojaat etish: (71) 230-81-81

Raisning virtual qabulxonasi—“www.stat.uz”

Pochta manzili - info@stat.uz

hamda Yagona interaktiv davlat xizmatlari “my.gov.uz” portal sahifalari orqali Davlat statistika qo'mitasi rahbariyati qabuliga “Onlayn” tarzda yozilish hamda elektron shaklda yozma murojaat etishingiz mumkin.

**Davlat statistika qo'mitasi**

Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash va ijro intizomi nazorati boshqarmasi

Nashr uchun mas'ul:

**M.Normatov**  
(0371) 230-81-24

<i>Murojaatlar: (mazmun-mohiyat bo'yicha)</i>	<b>Soni</b>	<b>Ulushi, %</b>
Respublikaning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish statistik ko'rsatkichlari ma'lumotlarini taqdim etish;	75	45,3
Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registr bazasiga kiritish, chiqarish, statistik kodlar berish;	14	8,4
Nafaqa hujjatlarini rasmiylashtirish uchun ish staji, ish haqi to'g'risida arxiv ma'lumotlarni olish;	31	18,7
Statistik hisobotlarni to'ldirish va taqdim etish bo'yicha tushuntirish berish;	20	12,0
O'z faoliyatini amalga oshirish uchun amaliy yordam berish so'ralgan;	10	6,0
Qo'mita vakolatlari va faoliyati bo'yicha ma'lumot olish;	7	4,2
Boshqa masalalarda kelib tushgan murojaatlar;	9	5,4